

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida **XABAR NOMA**

Hurmatli aksiyador!

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining 2025-yil 24-sentabrdagi qaroriga asosan bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2025-yil 20-oktabr kuni Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy manzilida joylashgan binoda o‘tkaziladi.

Yig‘ilish soat 11:00 da boshlanadi. Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish soat 10:30 dan boshlanadi va soat 10:55 da tugatiladi. Umumi yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlari reyestri 2025-yil 24-sentabr holatiga va aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish uchun 2025-yil 14-oktabr holatiga tuziladi.

Kun tartibi:

1. Bankning sanoq komissiyasi a’zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning Ustaviga o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritish.
4. Bankning yangi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organni tashkil etish.
5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a’zolarini saylash.
6. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
7. Bankning ichki qoidalari to‘plamini tasdiqlash.
8. Bankning affillangan shaxslar ro‘yxatini tasdiqlash.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun, aksiyadorlarda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan masalalar bo‘yicha axborotlar (materiallar) bilan Toshkent shahri Yunusobod tumani, Shahrisabz ko‘chasi, 2-uy manzilida ushbu e’lon berilgan kundan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha tanishish mumkin.

Elektron pochta manzili: office@openbank.uz

Hurmat bilan,
“Open bank” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi.